

“Korrupsiyaga qarshi butun jamoatchilik
bilan kurashishimiz zarur”
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Shavkat MIRZIYOYEV

Keyingi yillarda mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida muhim tashkiliy huquqiy islohotlar amalga oshirilmoqda. Aholining huquqiy ongi va madaniyatini oshirishga, jamiyatda korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatni shakllantirishga yo'naltirilgan tizimli choralar ko'rilmoxda.

Prezidentimizning bevosita tashabbusi bilan mamlakatimizni yanada rivojlantirish, xalq farovonligini ta'minlash va inson qadrini oshirish borasida tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Taraqqiyotning yangi bosqichida O'zbekiston uchun korrupsiyaning har qanday shakldagi ko'rinishi islohotlar shiddatini va samarasini susaytirishi mumkin bo'lган illat hisoblanadi.

2023-yil 19-dekabr kuni Toshkent shahridagi Xalqaro kongresslar saroyida o'tkazilgan xalqaro tadbirda Prezidentimiz korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida yuksak xalqaro mukofotni topshirish marosimida, davlat idoralari faoliyatining shaffofligi va hisobdorligi yanada oshirish, korrupsiya holatlari bo'yicha "dastlabki o'rganish" – korruption surishtiruv institutini joriy etish kabi tashabbuslarni ilgari surdi.

Shuningdek, joriy yilning 20-dekabr kuni Toshkent shahridagi IT-Park majmuasida o'tkazilgan kengaytirilgan selektor yig'ilishida Davlat rahbari jahon iqtisodiyoti shiddat bilan o'zgarib borayotgan sharoitda hech bir sohani raqamli texnologiyalarsiz tasavvur qilib bo'lmasligini bildirib, "Raqamlashtirishdan bosh tortayotgan rahbar – korrupsiyani yo'q qilishga intilmagan rahbar" deb ta'kidladi.

Shu sababli, Yangi O'zbekistonda "Inson qadri uchun" tamoyili asosida xalqimizning farovonligini yanada oshirish, inson huquqlari va manfaatlarini so'zsiz ta'minlash hamda faol fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan islohotlar doirasida barcha sohalarda korrupsiyaga qarshi murosasiz kurashish muhitini shakllantirish talab etiladi.

Hujjatlar almashinuvida inson omilining aralashuviga yo'l qo'ymaslik, bunda elektron hujjat aylanishini ta'minlash maqsadida innovasion texnologiyalarini joriy etgan holda "Shaffof qurilish" milliy axborot tizimi ishga tushirildi.

Davlatimiz rahbarining "Qurilish sohasiga axborot-kommunikasiya texnologiyalarini keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori asosida amalga oshirilgan ushbu loyiha bilan qurilish ob'ektlarini rekonstruksiya qilish, loyiha-smeta hujjatlarini tayyorlash, ekspertiza va nazorat to'liq raqamlashtirildi.

Jumladan, "Shaffof qurilish" milliy axborot tizimida "Loyiha-smeta hujjatlari ekspertizasi" axborot tizimlari faoliyati yo'lga qo'yildi.

"Loyiha-smeta hujjatlari ekspertiza xulosalari" elektron reestri, "Qurilish sohasida davlat xizmatlari" platformasi axborot tizimlari ishlab chiqildi.

"Shaffof qurilish" milliy axborot tizimi doirasida ishlab chiqilgan axborot

tizimlari boshqa davlat organlarining axborot tizimlari va ma'lumotlar bazalari bilan integrasiya qilindi.

Qurilish sohasida davlat xaridlarida ochiqlikni taminlash va korrupsiyaviy xavf-xatarlarni kamaytirish bo'yicha elektron reyting hamda elektron tender platformalari joriy etildi.

Bugungi kunda vazirlikning raqamlashtirish yo'nalishida "Qurilish sifati nazorati", "Loyiha-smeta hujatlari ekspertizasi", "Ogoh fuqaro", "Geoportal", "Qurilish materiallari klassifikatori" kabi axborot tizimi joriy etilgan.

Hozirda "Qurilishdagi nazorat" tizimi orqali respublika bo'yicha 33 ming nafardan ziyod foydalanuvchi nazorat faoliyatini yuritmoqda.

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan bo'sh turgan yer uchastkalari tadbirkorlik va shaharsozlik faoliyatini amalga oshirish uchun faqat "e-ijro auksion" savdo maydonchasida elektron onlayn-auksion orqali berilishi yo'lga qo'yildi.

Shuningdek, korruption holatlari oldini olish va ularni bartaraf etishning eng muhim jihatlaridan biri boshqaruv tizimida "inson omili"ni kamaytirish uchun davlat va jamiyat boshqaruviga axborot-kommunikasiya texnologiyalarini keng joriy etishdir.

Shu ma'noda, vazirlik tomonidan sohani raqamlashtirish, kommunal to'lovlar tizimi shaffofligini ta'minlash maqsadida "Mening uyim" billing tizimi ishlab chiqilgan bo'lib, unda ko'p kvartirali uylardagi aholining majburiy badal to'lovlarini elektron shaklda to'lash va o'z navbatida yurtdoshlarimiz tomonidan boshqaruv tashkilotlarining moliyaviy xarajatlarini onlayn kuzatib borish imkoniyati yaratildi.

Vazirlik tomonidan korruptionsaga qarshi kurashish sohasida profilaktik tadbirlar, xususan, xodimlar bilan tushuntirish ishlarini amalga oshirish, suhbatlar o'tkazish, targ'ibot ishlarini amalga oshirish kabi keng ko'lamli ishlar amaga oshirilib kelinmoqda.

Vazirlikning markaziy apparati, uning hududiy bosh boshqarmalari hamda tasarrufidagi korxonalari xodimlarining qonunchilikka zid xatti-harakatlari yoki harakatsizliklarining guvohi bo'lsangiz yoki xodimlarning korrupsiya va boshqa huquqbazarlik holatlariga aloqadorligi yuzasidan ma'lumotlarga ega bo'lsangiz, vazirlikning **(71) 2101104** (1066) raqamli ishonch telefoni yoki ushbu aloqa kanallari t.me/Qurilish_Komplayens_bot telegram boti va rasmiy mc.uz veb-sayti orqali o'z murojaatingizni yo'llashingiz mumkin.

Ushbu murojaatingiz qonunchilikda belgilangan tartib va muddatlarda ko'rib chiqiladi hamda tasdiqlangan korruption holatlar bo'yicha keskin qonuniy choralar ko'rildi.

O'z navbatida, vazirlik tizimida mehnat qilayotgan har bir rahbar va xodimni korrupsiya holatlarining har qanday ko'rinishlariga nisbatan murosasiz munosabatda bo'lishga hamda o'z xizmat vazifalarini halol va xolis bajarishga yana bir bor chaqiramiz.

B.Zakirov

**O'zbekiston Respublikasi
Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi
vaziri**